

TURIZM SOHASIGA INVESTITSİYALARNING MINTAQA IQTISODIY O‘SISHI VA BANDLIGIGA TA’SIRI

Azimov Olimjon Orifovich

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Yavmutov Dilshod Shoyimardonkulovich

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Annotatsiya: Maqolada turizm sohasiga yo‘naltirilgan investitsiyalarning mintaqaviy iqtisodiy o‘sishi, bandlik va xizmatlar eksportiga ta’siri Buxoro viloyati misolida empirik jihatdan tahlil etilgan. Rasmiy statistik ma’lumotlar asosida viloyat yalpi hududiy mahsuloti, tarmoq tuzilmasi va turizm ko‘rsatkichlari dinamikasi o‘rganilib, turizm xizmatlari eksporti tovar eksportidan oshib ketgani hamda xizmatlar sohasi iqtisodiy o‘sishning yetakchi omiliga aylangani aniqlangan. Tadqiqot natijalari asosida turizm investitsiyalarini boshqarishning zanjirli modeli hamda 2030-yilgacha ikki stsenariyli prognoz taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: turizm investitsiyalari, mintaqaviy iqtisodiyoti, xizmatlar eksporti, bandlik, investitsion jozibadorlik, multiplikativ samara, Buxoro viloyati.

Abstract: The article provides an empirical analysis of the impact of tourism-directed investments on regional economic growth, employment and services exports in the case of Bukhara region. Based on official statistics, the dynamics of gross regional product, sectoral structure and tourism indicators are examined; it is found that tourism services exports exceed merchandise exports and that services have become the leading driver of growth. A chain-based model of tourism investment management and a two-scenario forecast up to 2030 are proposed.

Keywords: tourism investment, regional economy, services export, employment, investment attractiveness, multiplier effect, Bukhara region.

Kirish

Zamonaviy mintaqaviy iqtisodiyotda turizm nafaqat xizmatlar sohasining bir tarmog'i, balki investitsiyalarni jalb etuvchi, bandlikni oshiruvchi va hududning tashqi iqtisodiy aloqalarini kengaytiruvchi kompleks omil sifatida qaralmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va taraqqiyot bo'yicha konferensiyasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda jahon bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 1,5 trln AQSH dollarini tashkil etib, ularning sezilarli qismi rivojlanayotgan mamlakatlarning xizmatlar va infratuzilma tarmoqlariga yo'naldi. Bunday sharoitda tarixiy-madaniy merosga boy mintaqalar uchun turizm investitsiyalari iqtisodiy o'sishning tabiiy manbaiga aylanadi.

O'zbekistonda turizmni jadal rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. 2025-yilda mamlakatga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar soni 11 million nafardan oshib, turistik xizmatlar eksporti 4,8 mlrd dollarga yetdi, vizasiz tartib joriy etilgan davlatlar soni 94 taga ko'paydi. Ushbu yo'nalish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi PF-87-son Farmoni, 2026-yil 30-apreldagi PQ-161-son "Hududlarda turizm infratuzilmasini jadal rivojlantirish va sohada loyiha boshqaruvi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son "yashil" iqtisodiyot davlat dasturi bilan huquqiy jihatdan mustahkamlangan.

Buxoro viloyati YUNESKOning umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan tarixiy markazi va ziyoratgohlari bilan mamlakat turizm sanoatining tayanch hududlaridan biri hisoblanadi. Biroq ilmiy adabiyotlarda turizm sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning aynan mintaqaviy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga – yalpi hududiy mahsulot, bandlik va xizmatlar eksportiga – ta'siri yetarlicha empirik baholanmagan. Ushbu maqolaning maqsadi Buxoro viloyati misolida turizm investitsiyalarining mintaq iqtisodiy o'sishi va bandligiga

ta'sirini rasmiy statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilish hamda uni kuchaytirishning tashkiliy-iqtisodiy yo'nalishlarini asoslashdan iborat.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Turizm iqtisodiyoti va investitsiyalarning mintaqaviy o'lchamlari M.Porter, P.Krugman, J.Dunning kabi olimlarning asarlarida nazariy asoslangan; O'zbekiston sharoitida hududiy investitsion jozibadorlik va turizmni rivojlantirish masalalari D.Sh.Yavmutov, O.X.Xamidov, N.S.Ibragimov va boshqa tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Shu bilan birga, turizm investitsiyalarining mintaqa bandligi va xizmatlar eksportiga ta'sirini viloyat hamda tumanlar kesimida empirik baholovchi tadqiqotlar hali yetarli emas, bu esa mazkur ishning dolzarbligini belgilaydi.

Materiallar va usullar

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Milliy statistika qo'mitasi va Buxoro viloyati statistika boshqarmasining rasmiy ma'lumotlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining rasmiy axborotlari (president.uz) hamda Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazining tahliliy materiallari tashkil etadi. Tahlil davri sifatida 2023–2025-yillar asosiy o'rganish oralig'i qilib olindi, 2026-yil bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar hamda 2030-yilgacha prognoz qiymatlari qo'shimcha ravishda ko'rib chiqildi.

Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi: iqtisodiy-statistik va dinamik tahlil (ko'rsatkichlarning o'sish sur'atlari va tarkibiy siljishlarini aniqlash uchun), tarkibiy tahlil (yalpi hududiy mahsulot tarmoq tuzilmasini o'rganishda), nisbiy (jon boshiga) ko'rsatkichlar usuli, elastiklik koeffitsiyenti hamda korrelyatsion tahlil (turizm oqimi bilan xizmatlar sohasi o'rtasidagi bog'liqlikni baholashda), SWOT-tahlil va stsenariyli prognozlashtirish. Metodologik cheklov sifatida shuni ta'kidlash lozimki, turizm investitsiyalari bo'yicha rasmiy vaqt qatorining nisbatan qisqaligi tufayli elastiklik va korrelyatsiya ko'rsatkichlari illyustrativ xarakterga ega bo'lib, tendensiyaning ifodalash uchun keltiriladi; barcha hisob-kitob ko'rsatkichlari matnda alohida belgilab o'tilgan.

Tahlil natijalari

Buxoro viloyati iqtisodiyoti so‘nggi yillarda barqaror va tezlashib boruvchi o‘shish traektoriyasini namoyon etmoqda. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, viloyat yalpi hududiy mahsuloti (YaHM) joriy narxlarda 2023-yildagi 53 232,3 mlrd so‘mdan 2024-yilda 71 560,4 mlrd so‘mga, 2025-yilda esa 86 608,1 mlrd so‘mga yetdi; real o‘shish sur‘ati mos ravishda 5,2, 6,6 va 7,2 foizni tashkil etib, izchil tezlashdi, 2026-yil uchun esa YaHMni 102,1 trln so‘mga yetkazish (9,1 foizlik o‘shish) maqsad qilib belgilangan. Asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar 1-jadvalda keltirilgan.

Buxoro viloyatining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari (2023–2025-yillar) 1-jadval

Ko‘rsatkich	2023	2024	2025
YaHM, mlrd so‘m (joriy narxlarda)	53 232,3	71 560,4	86 608,1
YaHM real o‘shish sur‘ati, %	105,2	106,6	107,2
Doimiy aholi soni, ming kishi	2 044,0	2 077,0	2 107,0
Aholi jon boshiga YaHM, mln so‘m*	26,0	34,5	41,1

Manba: Milliy statistika qo‘mitasi, Buxoro viloyati statistika boshqarmasi (buxstat.uz) va president.uz ma’lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan. * – mualliflar hisob-kitobi (YaHMning yil oxiridagi aholi soniga nisbati).

Iqtisodiy o‘shish bilan bir qatorda viloyatning turizm salohiyati ham jadal ro‘yobga chiqmoqda. Buxoro viloyati turizm bosh boshqarmasining rasmiy byulletenlariga ko‘ra, 2018-yilda viloyatga 312 ming nafar xorijiy sayyoh tashrif buyurgan bo‘lsa, 2025-yilning 11 oyida bu ko‘rsatkich 2 251,5 ming nafarga yetdi – ya’ni yetti yilda qariyb 7,2 barobar oshdi. Turizmning asosiy ko‘rsatkichlari 2-jadvalda umumlashtirilgan.


Buxoro viloyati turizm ko‘rsatkichlari va respublika konteksti 2-jadval

Ko‘rsatkich	Qiymat	Davr/izoh
Xorijiy sayyohlar soni, ming kishi	312	2018-yil (baza)
Xorijiy sayyohlar soni, ming kishi	2 251,5	2025-yil, 11 oy
Turizm xizmatlari eksporti, mln AQSh dollari	614,1	2025-yil, 11 oy
Turoperatorlar soni, ta	218	2025-yil

Respublika bo'yicha (kontekst)	8,6 mln sayyoh; 2,7 mlrd AQSh dollari	2024-yil
--------------------------------	---------------------------------------	----------

Manba: Buxoro viloyati turizm bosh boshqarmasi va Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari, uza.uz rasmiy axboroti (2024–2025) asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.

YaHMning uzluksiz o'sish dinamikasi 1-rasmda aks ettirilgan. Diagrammadan ko'rinib turibdiki, viloyat iqtisodiyoti so'nggi uch yilda mutlaq hajm jihatidan sezilarli kengaydi va 2026-yilga belgilangan maqsadli ko'rsatkich ushbu tendensiyaning davom etishini nazarda tutadi.




1-rasm. Buxoro viloyati YaHM dinamikasi (mlrd so'm; 2026-yil – maqsadli ko'rsatkich)

Manba: Milliy statistika qo'mitasi va president.uz ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.

Iqtisodiy o'sishning tarmoq manbalari tahlili turizm bilan bevosita bog'liq bo'lgan xizmatlar sohasining yetakchi rolini yaqqol ko'rsatadi. 2025-yilda bozor xizmatlari hajmi 14,0 foizga, qurilish ishlari 11,3 foizga, chakana savdo 9,2 foizga o'sgani holda, sanoat 7,1 foiz, qishloq xo'jaligi esa atigi 4,3 foiz o'sish ko'rsatdi (2-rasm). Bu ma'lumotlar viloyat iqtisodiyotining agrar-industrial modeldan xizmatlar yetakchiligidagi

diversifikatsiyalashgan modelga o'tayotganini tasdiqlaydi, bu jarayonning bosh harakatlantiruvchi kuchi esa turizm hisoblanadi.



2-rasm. Buxoro viloyati iqtisodiyoti tarmoqlarining 2025-yildagi real o'sish sur'atlari (foizda)

Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.

Xizmatlar sohasining ulushi 2022-yildagi 26,3 foizdan 2023-yilda 30,2 foizgacha, ya'ni bir yilning o'zida qariyb to'rt foiz bandiga oshgani tarkibiy siljishning turizm hisobiga jadallashganini ko'rsatadi. Ushbu siljishning eng muhim natijasi turizm xizmatlari eksportining o'sishida namoyon bo'ladi. 3-jadvalda turizm xizmatlari eksporti tovar eksporti bilan qiyoslangan.

Buxoro viloyati turizm xizmatlari eksporti va tovar eksportining qiyosiy tahlili (2025-yil) 3-jadval

Ko'rsatkich	Qiymat	Izoh
Turizm xizmatlari eksporti (11 oy), mln AQSh dollari	614,1	tovar eksportidan yuqori
Tovar eksporti, mln AQSh dollari	414,0	2025-yilda +32,8% o'sish

Jon boshiga turizm eksporti, AQSh dollari (taxminan)	$\approx 291^*$	respublika o'rtachasidan yuqori
Jon boshiga tovar eksporti, AQSh dollari (taxminan)	$\approx 196^*$	respublika o'rtachasidan past

Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan hisoblangan.

* – mualliflar hisob-kitobi (2025-yil 11 oy ko'rsatkichining yil oxiridagi aholi soniga nisbati).

Jadval ma'lumotlari muhim empirik xulosaga olib keladi: Buxoro viloyatining eng yirik eksport moddasi tovar emas, balki turizm xizmati hisoblanadi. Turizm xizmatlari eksporti (11 oyda 614,1 mln dollar) tovar eksportidan (414,0 mln dollar) sezilarli oshib ketgan. Bu turizmning viloyat tashqi iqtisodiy faoliyatining tayanch yo'nalishiga aylanganini va unga yo'naltirilgan investitsiyalarning eksport salohiyatiga eng katta ta'sir ko'rsatuvchi omil ekanligini tasdiqlaydi.


Turizm oqimi bilan xizmatlar sohasi o'rtasidagi bog'liqlikni baholash maqsadida elastiklik koeffitsiyenti hisoblandi. 2023–2025-yillarda xizmatlar sohasi hajmining o'sishi turizm oqimining kengayishi bilan bir yo'nalishda kechgani, bozor xizmatlarining 14,0 foizlik o'sishi asosan turizm bilan bog'liq mehmonxona, umumiy ovqatlanish, transport va chakana savdo tarmoqlari hisobiga ta'minlangani aniqlandi. Qisqa vaqt qatoriga asoslangan illyustrativ hisob-kitob turizm oqimining har bir foizlik o'sishiga xizmatlar sohasining o'rtacha 0,4–0,6 foizlik o'sishi mos kelishini ko'rsatdi (4-jadval).

Turizm oqimi va xizmatlar sohasi o'rtasidagi bog'liqlik (illyustrativ baho) 4-jadval

Ko'rsatkichlar jufti	Bog'liqlik yo'nalishi	Ilyustrativ elastiklik
Turizm oqimi → bozor xizmatlari	musbat, kuchli	$\approx 0,5-0,6$
Turizm oqimi → chakana savdo	musbat, o'rtacha	$\approx 0,4$
Turizm oqimi → xizmatlar eksporti	musbat, kuchli	$> 0,8$

Manba: mualliflar hisob-kitobi. Qisqa rasmiy vaqt qatori tufayli qiymatlar illyustrativ bo‘lib, bog‘liqlik yo‘nalishini ifodalaydi.

Tahlil natijalari turizm investitsiyalari samarasini oshirish uchun investitsion jarayonni yagona, teskari aloqaga ega tizim sifatida boshqarish zarurligini ko‘rsatadi. Shu maqsadda mualliflar tomonidan “Jozibador manzil – loyiha – infratuzilma – tadbirkor – targ‘ibot – sayyoh” olti bo‘g‘inli zanjir modeli taklif etiladi (3-rasm). Modelning mohiyati investitsiya loyihasini g‘oyadan (jozibador manzilni aniqlash) yakuniy natijaga (sayyoh oqimi va daromad) qadar uzluksiz boshqarish hamda har bir bo‘g‘inda olingan natijani keyingi loyihalarni takomillashtirishga yo‘naltirishdan iborat.



3-rasm. Turizm investitsiyalarini boshqarishning zanjirli modeli.

Manba: mualliflar ishlanmasi.

Zanjirli modelning samarali ishlashi barcha manfaatdor tomonlarning muvofiqlashtirilgan ishtirokini talab etadi. Shu munosabat bilan an'anaviy ikki bo‘g‘inli davlat-xususiy sheriklik modelini kengaytiruvchi “davlat – biznes – jamoatchilik – ta’lim” (“Quattro”) hamkorlik tizimi taklif etiladi (4-rasm). Ushbu tizimda davlat huquqiy asos va

infratuzilmani, biznes investitsiya va tadbirkorlik tashabbusini, jamoatchilik manfaatlar muvozanati va nazoratni, ta'lim esa malakali kadrlar va ilmiy-ekspert hamrohligini ta'minlaydi.

4-rasm. “Quattro” (davlat – biznes – jamoatchilik – ta'lim) hamkorlik tizimi



Manba: mualliflar ishlanmasi.

Turizm sohasidagi investitsion imkoniyatlar va cheklovlarni yaxlit baholash maqsadida SWOT-tahlil o'tkazildi (5-jadval). Tahlil viloyatning kuchli tomonlari (jahon ahamiyatidagi meros, yuqori sayyohlar oqimi) va imkoniyatlari (yagona turistik makon, yangi transport ulanishlari) sezilarli ekanligini, ayni paytda mavsumiylik va tashqi talab tebranishlari kabi tahdidlarni hisobga olish zarurligini ko'rsatdi.

SWOT-tahlil viloyatning kuchli tomonlari va imkoniyatlari sezilarli ekanligini, ayni paytda mavsumiylik hamda tashqi talab tebranishlari kabi tahdidlar turizm investitsiyalarini diversifikatsiya qilish va yil davomiga tekis taqsimlash zaruratini belgilashini ko'rsatadi.

Buxoro viloyati turizm investitsiyalarining SWOT-tahlili 5-jadval

Kuchli tomonlar (S)	Zaif tomonlar (W)
– YUNESKO merosi va yuqori turizm	– xizmat sifati va o'rtacha xarajatning

brendi; – yiliga 2 mln nafardan ortiq xorijiy sayyoh; – turizm eksportining tovar eksportidan yuqoriligi; – 218 ta turoperator va rivojlangan mehmondo'stlik tarmog'i	nomutanosibligi; – turizmning Buxoro shahri doirasida jamlanishi; – chekka tumanlar infratuzilmasining zaifligi; – mavsumiylik
Imkoniyatlar (O)	Tahdidlar (T)
– Toshkent–Buxoro–Urganch–Xiva yuqori tezlikdagi yo'li negizidagi yagona turistik makon; – tadbir turizmi (biyennale tashriflarni 1,6 barobar oshirdi); – aviaqatnovlarni ikki baravar oshirish rejasi; – ekoturizm va ziyorat yo'nalishlarini kengaytirish	– tashqi turistik talabning kon'yunktura tebranishlari; – mavsumiylik; – malakali kadrlarning qo'shni markazlarga oqib o'tishi; – raqobatning kuchayishi

Manba: mualliflar tomonidan o'tkazilgan tahlil asosida tuzilgan.

Yakunda turizm investitsiyalarining istiqbolli samarasi 2030-yilgacha ikki senariy – inersion (mavjud sur'atlar saqlangan holat) va faol investitsion (turizm investitsiyalari va zanjirli boshqaruv modeli jadal joriy etilgan holat) – bo'yicha prognozlashtirildi (6-jadval).

Buxoro viloyati turizm sohasining 2030-yilgacha prognoz ko'rsatkichlari 6-jadval

Ko'rsatkich	2025 (baza)	2030 inersion	2030 faol
Xorijiy sayyohlar, mln kishi	≈2,3	≈3,2	≈4,5
Turizm xizmatlari eksporti, mln AQSh dollari	≈670	≈950	≈1400

Xizmatlar sohasining YaHMDagi ulushi, %	≈30	≈34	≈40
Turizm daromadining tumanlar bo'yicha qamrovi	past	o'rtacha	yuqori

Manba: mualliflar prognozi. 2025-yil bazaviy ko'rsatkichlari rasmiy manbalardan; 2030-yil qiymatlari trend ekstrapolyatsiyasi va investitsion multiplikator asosida hisoblangan.

Muhokama

Tahlil natijalari turizm investitsiyalarining Buxoro viloyati iqtisodiy o'sishi va bandligiga ta'siri to'g'risidagi bir qator xulosalarni asoslaydi:

- turizm bilan bog'liq xizmatlar sohasi iqtisodiy o'sishning yetakchi omiliga aylandi: bozor xizmatlarining o'sish sur'ati (14,0%) sanoat (7,1%) va qishloq xo'jaligi (4,3%) sur'atlaridan ancha yuqori. Bu turizm investitsiyalarining multiplikativ tabiatini ko'rsatadi – bitta sayyoh oqimi mehmonxona, transport, umumiy ovqatlanish, chakana savdo va hunarmandchilik tarmoqlarida ketma-ket qo'shimcha talab hosil qiladi.

- turizm xizmatlari eksportining tovar eksportidan oshib ketishi viloyat uchun tashqi iqtisodiy faoliyatning yangi modelini belgilaydi: an'anaviy xomashyo va yarim tayyor mahsulot eksportidan yuqori qo'shilgan qiymatli xizmat eksportiga o'tish. Turizm eksportining jon boshiga ko'rsatkichi respublika o'rtachasidan yuqori bo'lgani holda, tovar eksporti bo'yicha viloyat ortda qolmoqda – bu turizmni viloyatning eksport ixtisoslashuvi sifatida mustahkamlash zaruratini tasdiqlaydi.

- turizm investitsiyalarining bandlikka ta'siri ikki yo'nalishda namoyon bo'ladi: bevosita (mehmonxona, turoperator, transport xizmatlaridagi ish o'rinlari) va bilvosita (hunarmandchilik, oziq-ovqat, qurilish tarmoqlaridagi qo'shimcha bandlik). Ishsizlik darajasining 4,7 foizgacha pasayishi va aholi real daromadlarining o'sishi ushbu ta'sirning ijobiy ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, e'tibor ish o'rinlari sonidan ularning sifatiga ko'chishi lozim.

Taklif etilgan zanjirli boshqaruv modeli va “Quattro” hamkorlik tizimi turizm investitsiyalari samaradorligini oshirishning tashkiliy mexanizmini tashkil etadi. Ular O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 30-apreldagi PQ-161-son Qarorida belgilangan hududlarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish va loyiha boshqaruvi tizimini joriy etish vazifalari bilan bevosita hamohangdir. Shuningdek, turizm daromadini viloyat tumanlariga kengroq taqsimlash hududiy tafovutlarni yumshatishga xizmat qiladi.

Xulosa

O‘tkazilgan empirik tahlil turizm sohasiga yo‘naltirilgan investitsiyalar Buxoro viloyati iqtisodiy o‘sishi, bandligi va eksport salohiyatining muhim omiliga aylanganini ko‘rsatdi. Xizmatlar sohasi o‘shishning yetakchi manbaiga aylandi, turizm xizmatlari eksporti esa tovar eksportidan oshib ketdi. Ushbu natijalar asosida quyidagi xulosa va tavsiyalar shakllantirildi:

- turizm investitsiyalarini “Jozibador manzil – loyiha – infratuzilma – tadbirkor – targ‘ibot – sayyoh” zanjiri bo‘yicha yagona tizim sifatida boshqarish loyihalar samaradorligini oshiradi;
- “davlat – biznes – jamoatchilik – ta’lim” (“Quattro”) hamkorlik tizimini joriy etish loyihalarining ijtimoiy qabul qilinishini va kadrlar bilan ta’minlanishini kuchaytiradi;
- turizm investitsiyalarini mavsumiylikni yumshatuvchi (tadbir turizmi) va hududiy qamrovni kengaytiruvchi (tumanlararo destinatsiyalar) yo‘nalishlarga taqsimlash zarur;
- samaradorlikni izchil kuzatish uchun turizm investitsiyalari, sayyohlar oqimi va tumanlararo daromad taqsimoti bo‘yicha statistik monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq.

Mazkur tavsiyalarining amaliyotga joriy etilishi Buxoro viloyatining investitsion jozibadorligini oshirish va uni mamlakat turizm sanoatining barqaror o‘shish qutbiga aylantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi PF-87-son Farmoni "2025–2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko'paytirish chora-tadbirlari to'g'risida". – Toshkent, 2025.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 30-apreldagi PQ-161-son Qarori "Hududlarda turizm infratuzilmasini jadal rivojlantirish va sohada loyiha boshqaruvi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida". – Toshkent, 2026.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" davlat dasturi. – Toshkent, 2025.
4. Porter M. The Competitive Advantage of Nations – New York: Free Press, 1990. – 855 p
5. Krugman P. Increasing Returns and Economic Geography // Journal of Political Economy. – 1991. – Vol. 99, No. 3. – P. 483–499.
6. Yavmutov D.Sh. Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari. – Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2024.
7. UNCTAD. World Investment Report 2025. – Geneva: United Nations, 2025.
8. Milliy statistika qo'mitasi. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi to'g'risida ma'lumot. – Toshkent, 2025. – URL: <https://stat.uz>
9. Buxoro viloyati statistika boshqarmasi. Ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar (press-relizlar). – Buxoro, 2024–2025. – URL: <https://buxstat.uz>
10. O'zbek turizmi 2024 yil qanday yutuqlarga erishdi? // UZA.uz. – 2024. – URL: <https://uza.uz>
11. Omonova N.R. Tadbir turizmi Buxoro destinatsiyasi jozibadorligini oshirish omili sifatida // "O'zbekistonda inklyuziv turizmni rivojlantirish istiqbollari" xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to'plami. – Buxoro: BuxDU, 2025.